



MIYONQOLNING TARIXIY-GEOGRAFIK TAVSIFI

Rustamjon Jumayev

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi

tel: (+998)90 246 31 31

rustamjonjumayev22@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Miyonqolning tarixiy-geografik tuzilishi, kelib chiqishi, joylashuvi va aynan hozirgi davrda qaysi hududlarni o'z ichiga olganligi shuningdek, Miyonqol vohasining manbalarda yortilishi o'ziga xos ahamiyati haqida, Miyonqol vohasida qadimdan mavjud bo'lgan va juda kam sonli manbalarda nomlari tilga olingan ma'lumotlari, tarixiy-geografik kelib chiqishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Miyonqol, Zarafshon, Oqdaryo, Qoradaryo, Samarqand, Sug'd, Xatirchi, Payshanba, Zarafshon, Xatirchi, Dahbed, Chelak, Buxoro.

Abstract: This article is about the historical-geographical structure, origin, location of Miyankal and what areas it includes in the current period, as well as the special importance of the source of the Miyankal oasis, the names of which have existed in the Miyankal oasis since ancient times and are mentioned in very few sources. the information obtained, the historical-geographical origin are discussed.

Key words: Miyankal, Zarafshan, Akdarya, Karadarya, Samarkand, Sughd, Khatirchi, Payshan, Zarafshan, Khatirchi, Dahbed, Chelak, Bukhara.



Аннотация: В этой статье рассказывается об историко-географическом строении, происхождении, местонахождении Мионкала и о том, какие именно территории он включает в себя в настоящее время, а также об уникальном значении мионкальского оазиса в источниках, данных о Мионкальском оазисе, имена которых упоминаются в очень немногих источниках.

Ключевые слова: Мионкол, Зарафшан, Акдарья, Карадарья, Самарканд, Согд, Хатирчи, Пайшанба, Зарафшан, Хатирчи, Дахбед, Челябин, Бухара.

Miyonqolning o'ziga xos tarixi mavjud. Agar tarix sahifalariga nazar tashlasak, bu hudud ikki ming yildan ziyod vaqt jarayonida bir necha nomlar bilan ma'lum va mashhur bo'lganligini, keyinchalik esa Miyonqol nomi bilan atalganini guvohi bo'lamiz. Joylashuviga ko'ra Miyonqol Zarafshon daryosining o'rta oqimidagi orol bo'lib, bu orolning uzunligi 100 kilometrdan ziyod, eni o'rtacha 15 kilometr¹. U O'zbekistondagi Oqdaryo va Qoradaryo oralig'idagi joy hisoblangan. Qadimda Samarqand Sug'di, Nim Sug'd(yarim Sug'd), Sug'di Xurd(Kichik Sug'd) nomlari bilan mashhur bo'lgan. Xonliklar davrida Buxoro bilan Samarqand o'rtasida uzunasiga 12 farsang keladigan devor olingan. Miyonqol dehqonchilik uchun qulay bo'lib Xatirchi, Payshanba, Qal'ai Dabus va boshqa shahar, qishloqlarni o'z ichiga olgan. Keyinchalik Zarafshon vodiysining Samarqand bilan Xatirchi oralig'idagi yerlar Miyonqol deb atalgan.² Zarafshon vodiysi har doim unumdorligi, tuproqqa ishlov berilishi va qalin tuzem aholisi bilan ajralib turgan. U butun O'rta Osiyoning oltin tubi hisoblangan. Zarafshon daryosi Samarqanddan 8 verst masofada joylashgan va janubiy Qoradaryo (Daryai siyohab). Bu ikki qo'l bir-biridan 15 – 18 verst

¹XVI-XVIII asrlar qozoq xonliklari tarixiga oid materiallar

²“O‘ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI”, DAVLAT ILMIY NASHRIYOTI TOSHKENT 2001. 643-bet



uzoqlashadi va Xatirchi shahri yaqinida quyiladi. Shunday qilib, Zarafshon orolni o'z qo'llari bilan hosil qiladi. Bu orol Miyonqol nomi bilan ataladi.³

Miyonqolning geografik tavsifi bir qator tadqiqotlarda uchraydi. Xususan, T.Nafasov, S.Qorayevlar tadqiqotlarida bu hudud Miyankal, Miyonqol va Miyonqolot tarzida ta'riflanib fors-tojik tilida "Ikki daryo oralig'i", "Ikki suv orasi" ma'nolarini anglatganligi to'g'risida ma'lumot beriladi. M.A.Abduraimovning tadqiqotida Xatirchi, Payshanba va Dabusqal'a shaharlari Miyonqolga qaraganligi qayd qilingan. Lekin bu fikrga to'liq qo'shib bo'lmaydi. Albatta, Payshanba shahri Miyonqolda joylashgan, lekin Xatirchi va Dabus qal'a shaharlari Miyonqolga tegishli bo'lmagan. O'zbek Sovet Entsiklopediyasida keltirilgan ma'lumot asosan M.A. Abduraimovning tadqiqotidan olingan.⁴ I.Sanaev esa "Tarixi Humoyun" asaridagi ma'lumotlarga tayanib, Miyonqolning ma'muriy markazi Karmana, viloyat sakkiz hokimlikka bo'linadi: Karmana, Ziyovuddin, Xatirchi, Bog'chaikalon, Nurota, G'ujumsaroy, Komi-Mig'. Yangiqo'rg'on deb ma'lumot beradi.⁵ Lekin bu ma'lumotga qo'shib bo'lmaydi. Chunki, yuqorida ko'rsatilgan hokimliklardan faqatgina Yangiqo'rg'on Miyonqolga tegishli bo'lgan. Karmana shahri esa hech qaysi davrda Miyonqolning ma'muriy markazi vazifasini o'tamagan.⁶ X.Hasanov o'z tadqiqotida Miyonqolni Zarafshon daryosining irmoqlari Oqdaryo va Qoradaryo oralig'ida, aslida Miyonkom - "daryo o'rtasi", "ikki suv orasi" degan ma'noda deb to'g'ri ta'riflaydi. Miyonqolga Akademik A.R.Muhammadjonovning hamda Miyonqol hududida arxeologik tadqiqotlar olib borib, uning qadimgi tarixiga oid monografiya yozgan qadimshunos olim

³Maev N.A. Turkiston o'lkasining topografik ocherki: o'lkaning orografiyasi va gidroografiyasi//Turkiston o'lkasi statistikasi uchun materiallar. Yillik. N.A. Mayev tahriri ostida. Vip. I. — SPb., 1872. — 107.).

⁴Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве XVI - первой половине XIX века. Т. 1. - Т. Фан, 1966; Қиёс қилинг, // Ўзбек Совет энциклопедияси. Т. 7, -Т, 1976.

⁵Санаев И. Зиёвуддин тарихи. - Т. Шарқ, 1995. - Б. 244 Ҳасанов Х. Географик номлар сири. Т.: Ўзбекистон, 1985.

⁶Pardayev Komil Karimovich. "O'rta Zarafshon(Miyonqol) vohasining XIX-XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti", Dissertatsiya, qo'lyozma huquqi U.D.K. 9(575.1), Toshkent 2003.



G.A.Pugachenkovaning tadqiqotlarida ham ilmiy jihatdan to'liq va aniq geografik tavsiflar berilgan. 1825-yili Sankt-Peterburgda nashr qilingan "Азиатический Вестник"da Zarafshon daryosi Dahbeddan, Miyonqoldan, Payshanbadan oqib o'tadi deb ma'lumot berilgan. Albatta, bu ma'lumot ham noto'g'ri berilgan. Chunki, Dahbed va Payshanba shaharlari Miyonqol hududida joylashgan edi.

Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng bu yerga ko'plab sharqshunoslar va geograflar taklif qilindi. Ularning orasida Miyonqol hududida bo'lib, u yerda tadqiqotlar olib borganlari ham ko'pdir. Orenburgdan Buxoroga sayohat qilgan Ye.K.Meyendorf Miyonqolni shunday ta'riflaydi: "Miyonqolda Karmana, Ziyovuddin, Xatirchi, Payshanba, Kattaqo'rg'on, Yangiqo'rg'on va Chelak joylashgan".⁷ Muallif bu yerda Miyonqolga noto'g'ri geografik ta'rif bergan. Chunki, Karmana, Ziyovuddin, Xatirchi, Kattaqo'rg'on va Chelak shaharlari geografik jihatdan Miyonqolda (ikki daryo oralig'ida) joylashmagan edi. Bundan tashqari A.P.Fedchenko. K.K.Abaza, L.N.Sobolev, A.P.Xoroshxin. I.I.Geyer va boshqalarning tadqiqotlarida⁸ ham Miyonqolning geografik va topografik tavsifi to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi. Rus mualliflari tomonidan berilgan ma'lumotlarning ko'pchiligida Miyonqol nafaqat Zarafshon vodiysining, balki Buxoro amirligining aholisi zich, geografik qulay, suv bilan yaxshi ta'minlangan, hosildor tuproqli, dehqonchilik madaniyati yuksak rivojlangan boy hududi sifatida tilga olinadi.⁹ Albatta, mustamlakachilarning bu hududda tadqiqotlar olib borib uni

⁷Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. -М.: Наука, 1975. -С. 85-90.

⁸Федченко А.П. Топографический очерк Зеравшанской долины и заметки о соседних бекствах и памятниках Самарканда /с картой Зеравшанской долины/ //Турк. сб. -СПб., 1883. Т. 375: Абаза К.К. Завоевание Туркестана /Рассказы из военной истории, очерки природы, быта и нравов туземцев в общедоступном изложении/. -СПб., 1902; Соболев Л.Н. Об орошении Зеравшанской долины. // Турк. сб. -СПб., 1873, Т. 83; Хорошин А.П. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. -СПб., 1976; Гейер И.И. Путеводитель по Туркестану. -Т., 1901; Военный сборник /Известия из Турк, округа/-СПб., 1868. -№ 7; Энциклопедический словарь. -СПб., 1895. -Т. 14

⁹Pardayev Komil Karimovich. "O'rta Zarafshon(Miyonqol) vohasining XIX-XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti", Dissertatsiya, qo'lyozma huquqi U.D.K. 9(575.1), Toshkent 2003.



ilmiy jihatdan o'rganishining asosiy sababi va bosh maqsadi bu yerdan ko'riladigan manfaatdorlikning yuqoriligi, bu hudud boyliklarini ko'proq o'zlashtirish hamda shuning orqasidan mustamlaka tizimini mustahkamlashdan iborat edi.

Yuqoridagi manbalarda keltirilgan malumotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, Miyonkol atamasi aslida Miyonkomdir uning lug'aviy ma'nosi fors-tojik tilida "Miyon" o'rta, oraliq; "Kom" daryo, ariq, suv, ya'ni "Daryo o'rtasi", "Ikki suv orasi" ma'nolarini anglatgan. Bu atama keyinchalik boshqacha talaffuzda Miyonqol deb atala boshlangan. Eslatib o'tish joizki, Zarafshon daryosi ham o'rta asrlarda "Xaromkom" deb atalgan ("Xar" katta, "Kom" suv, ya'ni "Katta suv" ma'nosida). Shunday qilib, Miyonqolning tarixiy-geografik tavsifi ma'lumot beruvchi manbalarga asoslangan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Birinchidan, Miyonqol Zarafshon daryosining irmoqlari Oqdaryo va Qoradaryo oraligida, vodiyning markaziy qismida joylashib, manbalarda uning aholisi zich, geografik qulay, hosildor tuproq, suv bilan yaxshi ta'minlangan hudud sifatida tilga olingan. Ikkinchidan, ba'zi bir manbalarda Miyonqolga noto'g'ri geografik tavsiflar berilgan, ya'ni Miyonqol hududidan tashqaridagi ba'zi bir shaharlari Miyonqolga tegishli deb ma'lumotlar bor. Uchinchidan, rus mualliflarining ko'pchiligi Miyonqol nafaqat Zarafshon vodiysini, balki butun Buxoro amirligining aholisi zich, geografik qulay, hosildor tuproqli, dehqonchilik madaniyati yuksak rivojlangan boy hududi sifatida ta'riflaydi. Shunday qilib, ruslar bosqiniga qadar Samarqand va Kattaqo'rg'on qalalari tasarrufida bo'lgan Miyonqol hududi tumanlarga, tumanlar mulklarga bo'lingan.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. "O'ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI", DAVLAT ILMIY NASHRIYOTI TOSHKENT 2001. 643-bet
2. "O'zbekiston tarixi" (Samarqand tarixi), IX jild, "O'zbekiston" NMIU, 2023.



3. Pardayev Komil Karimovich. "O'rta Zarafshon(Miyonqol) vohasining XIX-XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti", Dissertatsiya, qo'lyozma huquqi U.D.K. 9(575.1), Toshkent 2003.
4. Maev N.A. Turkiston o'lkasining topografik ocherki: o'lkaning orografiyasi va gidrografiya//Turkiston o'lkasi statistikasi uchun materiallar. Yillik. N.A. Mayev tahriri ostida. Vip. I. — SPb., 1872. — 107.).
5. Vohidov Sh. O'rta Osiyo xonliklarida davlat boshkaruviga doir. (XIX asr -XX asrning boshlari) Guliston. 2001.-5. 65. • Buxoro amirligining manzilgohlari (19-asr oxiri — 20-asr boshlari) // O'rta Osiyo tarixiy geograflari uchun materiallar. -T.: Universitet 2001.-C. 4-5.
6. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. (Sharafnomayi shohiy). K.1. – T.: Sharq, 1999. - B. 24. • Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. -T.: O'zbekiston, 1988; Qoraev S. Geografik nomlar ma'nosi. T.: O'zbekiston, 1978.
7. Samarqand /Zaravshon vodiysi xaritasi bilan///Turk, jild. -SPb., 1883. T. 375: Abaza K.K. Turkistonning zabt etilishi Harbiy tarixdan hikoyalar, tabiat, turmush va mahalliy aholi huquqlari haqida umumiy taqdimotda insholar. "SPb., 1902: Sobolev L.N. Zaravshon vodiysini sug'orish bo'yicha. // turk. Shanba. -SPb., 1873. T. 83: Xoroshin A.P. Turkiston o'lkasiga oid maqolalar to'plami. -SPb., 1976; Geyer I.I. Turkiston uchun qo'llanma. -T., 1901; Erkin to'plam (Turlardan yangiliklar, tuman / - Sankt-Peterburg, 1868, No 7; Ekzaklopedik lug'at - Sankt-Peterburg, 1895. - T. 14.
8. Bartold V.V. Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida. Op. T.I. -M.: nashriyot uyi. Sharq lit., 1963. -S. 146-147. Vyatkin V.L. Samarqand viloyatining tarixiy geografiyasiga oid materiallar (viloyatning ma'muriy bo'linishi) // Ma'lumotnoma. kitob Samarqand viloyati. jild. VIII. -Samarqand, 1902. -S. 14-16., 57. Bartold V.V. Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida // Op. T. 1. -M., 1963. -S. 146-147.



9. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т. I. -М.: Изд. Вост. лит., 1963. -С. 146-147.
10. Вяткин В.Л. Матерналы и исторической географин Самаркандского вилаета (Админстративное деление вилае та) // Справ. книжка Самарканд. обл. Вып. VIII. -Самарканд, 1902, -С. 14-16., 57.
11. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Соч. Т. 1. -М., 1963. - С. 146-147.
12. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. (Шарафномаи шоҳий). К.1. – Т.: Шарқ, 1999. -Б. 24. * Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изохли луғати. -Т.: Ўзбекистон, 1988; Қораев С. Географик номлар маъноси. Т.: Ўзбекистон, 1978.
13. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве XVI - первой половине XIX века. Т. 1. - Т. Фан, 1966; Қиёс қилинг, // Ўзбек Совет энциклопедияси. Т. 7, -Т., 1976.
14. Санаев И. Зиёвуддин тарихи. - Т. Шарқ, 1995. - Б. 244 Ҳасанов Х. Географик номлар сири. Т.: Ўзбекистон, 1985.
15. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. -М.: Наука, 1975. -С. 85-90.

Федченко А.П. Топографический очерк Зеравшанской долины и заметки о соседних бекствах и памятниках Самарканда /с картой Зеравшанской долины//Турк. сб. -СПб., 1883. Т. 375: Абаза К.К. Завоевание Туркестана /Рассказы из военной истории, очерки природы, быта и нравов туземцев в общедоступном изложении/. -СПб., 1902; Соболев Л.Н. Об орошении Зеравшанской долины. // Турк. сб. -СПб., 1873, Т. 83: Хорошин А.П. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. -СПб., 1976; Гейер И.И. Путеводитель по Туркестану. -Т., 1901; Военный сборник /Известия из Турк, округа/-СПб., 1868. -№ 7; Энгріклопедический словарь. -СПб., 1895. - Т. 14.